


ISSN 2010-5460

MAKTAB VA HAYOT

ILMIY-METODIK JURNAL

Maxsus son № 2





O'QUVCHILARNI KASB-HUNARGA YO'NALTIRISH VA PSIXOLOGIK-PEDAGOGIK RESPUBLIKA TASHXIS MARKAZI

AVTOMOBILLARNI TA'MIRLASH TEXNIGI

Uning faoliyati avtomobillarni sozlash, zararlangan qismlarni almashtirish va qayta ta'mirlashdan iborat

ISH FAOLIYATINING MAZMUNI VA ISH SHARTI

Ishtab chiqarish, xizmat ko'rsatish va boshqaruv, faoliyat sohalari: transport, sanoat xizmati, avtomobil tuzatish mexanigi, avtomashinalarning tuzilishi va buzilish sabablari haqida to'liq ma'lumotga ega bo'lishi kerak; texnik chizmalar va diagrammalarini o'qiy olishi kerak; avtotransport vositasining turli tarkibiy qismlari bir-biriga qanday ta'sir qilishini tushunish; diagnostika, ta'mirlash, texnik ko'rik jarayonida texnologiyalarini bilish.

avtomobil moyi, maxsus vositalar, boshqa texnik va ta'mirlash uchun ishlatiladigan mahsulotlarni, avusiyatlar va ulardan foydalanish imkoniyatlarini bilishi zarur.



KASB TIPI "ODAM - TEXNIKA"

MUTAXASSISNING INDIVIDUAL XUSUSIYATLARI

Avtomobil mexanikasida ko'pincha payvandlash ishlari ham bor. Bu kasbda jarohatlanish xavfi yuqori bo'lganligi uchun o'ta ehtiyotkorlik talab etiladi. Bu jarayonda kuyish, yoriq, chandiq va ko'karishlar sodir bo'lishi mumkin. Shu boisdan avtomobil mexanigidan juda ehtiyotkorlik, ziyraklik talab etiladi.

MUTAXASSISLIKKA QO'YILADIGAN TALABLAR

Maxsus uskunalar yordamida kerakli ta'mirlash ishtarini amalga oshiradi.

Shuningdek:

- yaxshi jismoniy sog'liq;
- aqliy balans;
- stressga chidamli bo'lish qobiliyati;
- aniqlik;
- javobgarlik;
- tahlil qilish qobiliyati ham juda zarurdir.



KASB EGALLASH YO'LLARI

Asosiy bilimlarni umumiy o'rta ta'lim va o'rta maxsus ta'lim muassasalarida olish mumkin

QO'LLANISH SOHASI

- avtotransport korxonalari;
- transport ustaxonalari;
- o'quv markaz va majmualari;
- servis stansiyalari va avtomashinalar boshqaruvi;

TIBBIY MONELIK

Tayanch-harakat tizimi kasalliklari, bo'yoc va eritmalarga allergik kasalliklar, ko'rish va eshitish organlari qobiliyatini pastligi



KASBIY O'SISH ISTIQBOLLARI

- 1-bosqich -shogird
- 2-bosqich -ta'mirlash ustasi
- 3-bosqich - o'liy toifali usta;
- 4-bosqich- tadbir-kor

TURDOSH KASBLAR

Aloqador sohalarni ixtisoslashtirish va rivojlantirish, vaqt o'tishi bilan tobora murakkab va keng ko'lami ishlarni bajarish bilan, tegishli kasblar doirasida yangi mutaxassisliklarni o'zlashtirish mumkin.



facebook.com/tashxismarkazi
t.me/hayotgaqoqshil
www.tashxis.uz
t.me/tashxismarkazi

MUNDARIJA

BOSH MUHARRIR

Liliya Gaynutdinova

TAHRIR HAY'ATI

Amanjol AYAPOV
Boris BLYAXER
Baxodir SOBIROV
Risboy JO'RAYEV
Sevara ZUPARXODJAYEVA
Lola MO'MINOVA
Vahobjon RAJPOV
Nargiza RAXMONQULOVA
Sherzod SHERMATOV
Shavkat SHARIPOV

Mas'ul kotib

Sayyora Alimxodjayeva

Adabiy muharrir

Sayyora Alimxodjayeva

Kompyuterda terish va dizayn

Mirtohir Xoliqov

Muallifning fikri har doim ham tahririyat fikriga to'g'ri kelavermaydi. Tahririyat maqolalarning uslubiy xatolarini to'g'rilash va qisqartirish huquqini o'zida saqlab qoladi. Tahririyatga yuborilgan maqolalar egasiga qaytarilmaydi va taqriz qilinmaydi.

Mualliflarning familiyasi, ismi, sharifi ularning pasportlari ma'lumotlariga muvofiq holda yoziladi.

Мнение редакции не всегда совпадает с мнением автора. Редакция оставляет за собой право на стилистическую правку и сокращение статей. Присланные в редакцию рукописи не возвращаются и не рецензируются.

Фамилия и инициалы авторов пишутся согласно данным их паспорта.

Muassislar:

O'quvchilarni kasb-hunarga
yo'naltirish va psixologik-pedagogik
respublika tashxis markazi
«MAKTAB VA HAYOT» M.CH.J.

Jurnaldan ko'chirib bosilganda

«MAKTAB VA HAYOT» dan olindi,
deb ko'rsatilishi shart.

Jurnal 2001 yildan
chiqa boshlagan.

MANZIL:

100095, Toshkent sh.,
Olmazor t., Ziyo ko'chasi, 6A uy.
Tel: (0371) 246-21-02
E-mail: maktabvahayot@sarkor.uz

OBUNA INDEKSI - 1019

R.R.Atajanova, R.B.Hojiyev.

Barkamol avlodni tarbiyalash – davr talabi 2

A.M.Shofqorov

Chizmachilik va chizma geometriya fanlarini o'qitish orqali

o'quvchilarning grafik savodxonligini oshirish 3

R.B.Hojiyev, R.R.Atajanova.

Pedagogik ta'limning innovatsion klasteri – ta'lim tizimining renessansi sifatida 4

U.Sh.Ismatov.

Bo'lajak tasviriy san'at o'qituvchilarini grafikmateriallarda ishlashga o'rgatish orqali ijodiy

kompetensiyalarini rivojlantirish 6

I.O.Jumayev.

Chizmachilik darslarida AutoCAD dasturidan foydalanishning

yutuq va kamchiliklari tahlili 7

U.Sh.Ismatov.

Bo'lajak tasviriy san'at o'qituvchilariga grafik materiallarda

ishlash texnologiyalarini o'rgatish 8

B.B.Ko'kiyev.

Talabalar emotsional intellektini tadqiq etishning psixologik imkoniyatlari 9

M.J.Maxmudov.

Tasviriy san'atda rahim ahmedovning, "ona o'ylari" asarini o'rgatish orqali

o'quvchilarning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish 11

S.T.Sobirov, N.R.Sayfiyeva.

O'quvchilarni estetik jihatdan tarbiyalashda tasviriy san'at

fanining va o'qituvchining o'rni 13

X.X.Muratov.

Tasviriy san'at fanidan mustaqil ta'limni tashkil etish va boshqarishda

"ispring" dasturiy ta'minotining ahamiyati 14

S.T.Sobirov.

O'quvchilarning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishga to'sqinlik qiluvchi

ba'zi omillar va ularni bartaraf qilish yo'llari 18

S.M.Abduxamidov, A.M.Suyarov.

Yoshlarning huquqiy madaniyatini oshirishda ta'lim islohotlarining o'rni 20

C.O.Ataxanova, G.A.Chubarova.

Pовышение качества преподавания начертательной геометрии в вузах 22

S.X.Xabibullayev.

Umumiy o'rta ta'lim maktablarida sport to'garaklarini tashkil etishning samarali usuli 23

I.Baxriyev.

Oliy ta'limda talabalarni manzara janrida ishlashga o'rgatish va kasbiy tayyorlash 25

B.III.Karapov.

Педагогическая поддержка развития профессиональной компетентности

преподавателя физической культуры 27

X.E.Sultanov.

Ta'lim klasteri orqali o'quv muassasalarining faoliyatini samarali tashkil etish 28

S.M.Abduxamidov.

O'quvchilarda badiiy-estetik tafakkurini rivojlantirish –

dolzarb pedagogik muammo sifatida 30

B.B.Baymetov.

Tasviriy san'atda talabalar ijodiy qobiliyatlarini shakllantirishda individual yondashish 32

T.R.Ankabayev.

Tasviriy va amaliy san'atdan to'garak mashg'ulotlarini tashkil etish jarayonida

o'quvchilarning estetik madaniyatini rivojlantirish 33

X.E.Sultanov, A.I.Vapayev, U.X.Xudoyorova.

Pedagogik ta'lim innovatsion klasteri amalda: hamkorlikning ilk samaralari 35

X.X.Muratov G.D.Isametova, X.U.Kenjayeva.

O'quvchilarning mustaqil ta'limni tashkil etish mazmuni, metodi va vositalari 36

X.E.Sultanov D.Eshpo'latov, Z.Shavkatova, M.Mamatkarimova.

Pedagogik ta'lim innovatsion klasteri o'quv jarayoni va amaliyot uzviyligining asosi 38

T.S.Achilov, I.R.Choriyev.

Pedagogik ta'lim innovatsion klaster yondashuvida maktab-laboratoriya

tajribasining tarmoqlararo o'zaro hamkorligi asos sifatida 39

S.A.Toshtemirova.

Ta'lim va tarbiyaning demokratik hamda insonparvarlik tamoyili 42

A.Yo.Shadiyev.

Jismoniy mashqlar bo'lajak pedagogik kadrlarni kasbiy tayyorlashda muhim vosita sifatida 43



O'QUVCHILARDA BADIY-ESTETIK TAFAKKURINI RIVOJLANTIRISH – DOLZARB PEDAGOGIK MUAMMO SIFATIDA

S.M.Abduxamidov, Toshkent viloyati Chirchiq davlat pedagogika instituti, Pedagogika fakulteti “Pedagogika va menejment” kafedrasida katta o'qituvchisi.

В данной статье рассмотрен вопрос развития художественно-эстетического мышления учащихся – как педагогическая проблема

Ключевые слова и понятия: художественно-эстетическое мышление, произведения искусства, национальная культура, развитие, ученики.

This article discusses the development of artistic and aesthetic thinking of students – as a pedagogical problem

Key words and concepts: artistic and aesthetic thinking, works of art, national culture, development, students.

San'atni sevmaydigan, undan hayratlanmaydigan kishi bo'lmaganidek, undan zavqlanmaydigan o'quvchi yoshlar ham bo'lmaydi. San'at asari qaysi ko'rinishda bo'lmasin insoniyat ruhiyatiga ijobiy ta'sir yetuvchi badiiy-yestetik sifatida namoyon bo'ladi. Shunday yekan bugungi kunda o'quvchi yoshlarga tasviriy san'atdan yuqori darajada mashg'ulotlarni o'ta oladigan malakali kadrlarni tayyorlash o'quv rejasidagi barcha mutaxassislik fanlar qatorida uzluksiz amaliyotning o'rni benihoya katta ahamiyatga ega.

Milliy madaniyatni rivojlantirishda xalq badiiy hunarmandchilik va amaliy san'atning ahamiyatini oshirish, qo'lda ishlana-yotgan badiiy buyumlarni tayyorlash, qayta tiklash hamda xalq hunarmandlariga davlat tomonidan madad ko'rsatish maqsadida 1996-yil 31-martda O'zbekiston Respublikasi birinchi Prezidentining “Xalq badiiy hunarmandchiliklari va amaliy san'atini yanada qo'llab-quvvatlash chora-tadbirlari to'g'risidagi” Farmoni chiqdi. “O'zbekiston Respublikasi xalq ustasi unvoni ta'sis etildi. Samarqand, Buxoro, Toshkent, Farg'ona vodiysi, Xorazm va Qoraqalpog'istonda yuzaga kelgan kulolchilik (sirkor va guldor, sopol buyumlar), yog'och va ganch o'ymakorligi, naqshinkor bezak va haykaltaroshlik, kashtachilik va, gilamdo'zlik, sholchado'zlik, chitgarlik, zargarlik san'ati, lokli miniatyura hamda kitob miniatyurasini hozir ham mavjud. Ganchkorlik- san'atimiz faxri, beqiyos va bebaho hazina. Hech shubhasizki, uni chuqur o'rganish ilmiy va amaliy ahamiyatga egadir.

Bugungi kunda Respublikamizda fan, ta'lim, madaniyat va san'at sohasida qator islohotlar amalga oshirilmoqda. Jumladan,

Prezidentimiz Mirziyoyev Shavkat Miromonovich tomonidan qabul qilingan 2017 yil 07 fevraldagi F-4947-sonli Farmoniga binoan 2017-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasi qabul qilindi. Mazkur hujjatning 4-qismi “Ijtimoiy sohani rivojlantirish” bo'lib, mazkur hujjatning ramziy belgisida qizil rang bilan ya'ni hayot va aholining munosib turmush-tarzi ta'minlash ma'nosini bildirganligi hamda 2019 yilning 19 martida yoshlarga e'tiborni kuchaytirish, ularni madaniyat, san'at, jismoniy tarbiya va sportga keng jalb etish, ularni axborot texnologiyalaridan ko'nikmalarini singdirish, yoshlar o'rtasida kitobxonlikni targ'ib qilish, xotin-qizlar bandligini oshirish masalalariga bag'ishlangan videoselektor yig'ilishida mamlakatimiz aholisining 30 %(foiz)ni 14 yoshdan 30 yoshgacha bo'lgan yigit-qizlar tashkil etishi? ularning bo'sh vaqtlarini mazmunli va foydali o'tkazish maqsadida “Besh muhim tashabbus”ni ilgari surdi, besh tashabbusning birinchisi yoshlarning musiqa, rassomchilik, adabiyot, teatr va san'atning boshqa turlariga qiziqishlarini oshirishga, iste'dodlarini yuzaga chiqarishga xizmat qilishi haqida so'z yuritishi ham bejiz emas.

Respublikamiz mustaqillikka erishgandan keyin barcha sohalar kabi san'at yo'nalishida ham o'z malakali pedagog kadrlar tayyorlash bo'yicha bir qator ilmiy metodik tadqiqot ishlari olib borilgan. Bu borada O'zbekistonlik olimlaridan R.Hasanov, A.Sulaymonov, B.Baymetov, N.Tolipov, S.Abdurasilov, R.Rajabov va

boshqalarning tasviriy va amaliy san'atni o'qitish metodikasiga oid bir qator ilmiy tadqiqot ishlari e'tiborga molik.

T.Mahmudov, S.Fayzulina, S.Shermuhamedov kabi olimlar tomonidan san'at, madaniyat, nafosatning falsafiy, pedagogik jihatlarini ishlab chiqilgan. Tasviriy san'atni o'qitishning psixologik jihatlarini B.Ananev, M.G.Davletshin, Ye.Ignatev, B.Teplov, P.Yakobsonlarning asarlarida ham o'z aksini topgan.

Yuqorida bayon yetilgan olimlarning ilmiy tadqiqot ishlarini e'tirof etgan holda shuni ta'kidlash joizki, san'at asarlari orqali o'quvchi yoshlarning badiiy estetik tafakkuri shakllanishining innovatsion texnologiyalarini ishlab chiqilishida talaygina ishlar o'z yechimini kutmoqda. Jumladan, zamonaviy axborot texnologiyalaridan unumli foydalanish orqali ta'lim mazmunini takomillash-tirish, ayniqsa o'zbek xalqi tomonidan yaratilgan boy tarixga ega bo'lgan milliy san'at namunalari qo'llagan holda mashg'ulotlar tashkil etish orqali va ularning tasvirini asliga qarab amaliy mashg'ulotlarda tasvirlashga o'rgatish va bo'lajak pedagog kadrlarni milliy san'atimiz tarixini yanada chuqurroq bildirish, o'quvchilarga o'zbek milliy san'at namunalari o'rgatish orqali ma'naviy jihatdan barkamol, milliy san'at namunalari yuqori darajada biladigan tarzda tarbiyalashning samarali yo'llarini ilmiy asoslash va amaliyotga tatbiq etish.

Shaxs tarbiyasi va uning ma'naviy jihatdan boy tarzda ta'lim olishiga oid masalalar kishilik jamiyati taraqqiyotining barcha bosqichlarida mutafakkirlar, faylasuflar, psixologlar va pedagog olimlarning diqqat markazida bo'lib kelgan.

Qomusiy allomalar – Naqshbandiy, Muhammad Al-Xorazmiy, Abu Nasr Al-Forobiy, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali ibn Sino, Mahmud Qoshg'ariy, Yusuf Xos Hojib, Alisher Navoiy, Abdulla Avloniy va boshqalarning komil inson tarbiyasi va uning mohiyati haqidagi qarashlari hozirda ham o'z ahamiyatini yo'qotmagan.

Umumiy o'rta ta'lim maktablarini tubdan takomillash-tirish, ta'limda interfaol metodlardan foydalanish muammolari yuzasidan turli soha olimlari tomonidan ilmiy ishlar olib borilgan bo'lsada, biroq tasviriy san'at asarlari orqali yoshlarni bugungi kunda bo'lajak tasviriy san'at o'qituvchilarining metodik tayyorgarligidagi o'ziga xos muammolar quyidagi faktorlar bilan belgilanadi:

- o'quvchilarning faol ta'lim olish shakllariga bo'lgan ehtiyoji va ijtimoiy zaruriyatning to'la qondirilmayotganligi;

- kasbiy shakllanishga yo'naltirilgan o'quv-tarbiyaviy ishlarni tashkil qilish uchun yetarli darajada kasbiy-pedagogik tayyorgarlikka yega yemasliklari;

- kasbiy shakllantirishda ta'limning mazmuni, metodi, zamonaviy vositalarini mustaqil tanlashlari uchun zarur shart-sharoit yaratilmaganligi;

- o'quvchilarga badiiy yestetik tafakkurini rivojlantirishda talab yetiladigan bilim va ko'nikmalarning yetarli shakllantiril-maganligi;

- o'quvchi yoshlarga ta'lim-tarbiya berishda san'at milliy qadriyatlar, xalqimiz tomonidan yaratilgan bebaho madaniy yodgor-



liklarning tarixini ilmiy o'rganib kelajak avlodlarga yetkazishning yetarli yemasligi kabi nomutanosibliklarga barham berish yo'llarini va usullarini aniqlash, ular asosida ilmiy tadqiqot va tajriba sinov ishlarini olib borish orqali zarur ilmiy xulosalar chiqarish hamda ilmiy, amaliy va metodik tavsiyalar ishlab chiqish zaruriyati tug'ildi.

Avvallari estetik tarbiya o'ta tor va bir tomonlama talqin qilinlar, ya'ni uni san'at asarlarini to'g'ri idrok etish, bu bilan alohida lazzatlanish yoki biror san'at turini bilib olib, muayyan badiiy ko'nikmalarga ega bo'lish doirasida idrok etilar edi. Ba'zan estetik tarbiyaga odamlarda yuksak estetik did-farosatni shakllantirish sifatida qaralar edi. Bularning barchasi badiiy-estetik tarbiyaning vazifa va maqsadlari kiradi.

Estetik tarbiya o'z diqqat-e'tiborini shaxs estetik ehtiyojlarini shakllantirishga qaratadi, xilma-xil o'ta murakkab talab-ehtiyojlarini birlashtiradi, uyg'unlashtiradi va hamohang tarzda amal qilishi uchun shart-sharoitlar yaratib beradi.

Estetik tarbiyaning inson talab-ehtiyojlari madaniyatini shakllantirishdagi o'rni ham beqiyosdir, zero insonning talab-ehtiyojlari madaniyatida muayyan mezon tuyg'usi ham mavjud bo'lishini, bu mezon tuyg'usi shaxsiy ehtiyojni jamiyat ehtiyoji bilan mutanosib tarzda qo'shib olib borishni taqozo etadi. Ana shu mezon tuyg'usida yetuklikka erishish estetik tarbiyaning eng muhim vazifalaridan biridir.

Shunday qilib, badiiy-estetik tarbiya — bu estetik jihatdan rivojlangan va ijodiy faol bo'lgan bola shaxsini shakllantirish demakdir. Badiiy-estetik tarbiya insonparvar mohiyatga, estetik orzu mos keladigan voqelikni idrok etish, baholash va nafasot qonunlari asosida qayta yaratishga qobil bo'lgan tarbiyalanuvchi shaxsini shakllantirishga mo'ljallangan ta'lim-tarbiya sohasidir.

Estetik madaniyatni shakllantirish — bu borliqdagi va san'atdagi go'zallikni to'liq idrok etadigan va to'g'ri tushunadigan shaxs qobiliyatlarini rivojlantirishga yo'naltirilgan jarayon. U o'zida badiiy kechinmalar, qarashlar va e'tiqodlar tizimini aks ettiradi, haqiqiy estetik qadriyatlardan zavqlanishni ta'minlaydi. Shu bilan birga bu orqali bolalarda turmushning hamma tomonlaridagi go'zallik unsurlarini ilg'ab olish, xunuklik, didsizlikka qarshi kurashga harakat qilishni tarbiyalaydi.

AQSH olimlari badiiy-estetik rivojlantirishning asosiy maqsadlaridan biri shaxs va muhitning emotsional ta'sir darajasini barqarorlashtirish, ijobiy yo'nalganlikka ega subyektiv tajribani boyitish deb hisoblashedi. Emotsional muvozanat g'oyasining izchil bayon etilishi ko'proq V.Louerfeldning "san'at orqali terapiya" konsepsiyasida o'z ifodasini topgan. Mazkur konsepsiyaning mohiyati shundaki, bolada hayotga ishonch yo'qolishining asosiy sababi o'zining fikrini so'z yordamida ifoda etib bera olmasligidadir. "San'at orqali terapiya" bilan bog'liqlikda Z.Freyd nazariyasi va bixevioristik psixologiyaning estetik tarbiya masalalariga doir izlanishlarida qator atamalar iste'molga kiritilgan: o'z-o'zini namoyon etish (self-yexpression), o'z- imkoniyatlarini amalga oshirish (self-realisation), "o'z-o'ziga ishonch" (self-sonfidense), "o'z-o'zini baholash (self-evaluation). O'z-o'ziga munosabatning mazkur jihatlarini o'zida birlashtirgan atama amerika nazariyasida "personal ajustment", ya'ni "shaxs va muhit munosabatlar barqarorligi" deb nomlangan.

Albatta, har qaysi xalq yoki millatning ma'naviyatini uning tarixi, o'ziga xos urf-odat va an'analari, hayotiy qadriyatlaridan ayri holda tasavvur etib bo'lmaydi. Bu borada tabiiyki, ma'naviy meros, madaniy boyliklar, ko'hna tarixiy yodgorliklar eng muhim omillardan bo'lib xizmat qiladi.

O'rta Osiyoda miloddan avvalgi 2 ming yillikning birinchi yarmidan boshlab zardushtiylik dini keng tarqalgan bo'lib, mazkur dinning muqaddas kitobi — "Avesto" o'z mazmun-mohiyatiga ko'ra madaniy-insonparvarlik g'oyalarning yaxlit majmuasi sifatida namoyon bo'ladi.

"Avesto"da borliqning yaxlitligi va bir butunligi, inson hayo-

ting tabiat bilan uyg'unligi masalasi odamning ruhiy olamiga chambarchas bog'liq holda ko'rsatilgani ko'p narsani anglatadi. Bu holat insonning ma'naviy dunyosini shakllantirishda atrof-muhit qadim zamonlardan buyon qanday kuchli ta'sir o'tkazib kelganiga yana bir bor e'tiborimizni jalb qiladi.

Markaziy Osiyo xalqlarining og'zaki ijodiga xos bo'lgan "Alpomish", "Go'ro'g'li", "Rustam", "Manas" dostonlarida, ma'naviy madaniyatning har qanday namunasida kuzatilganidek, dialektik unsurlarni, ichki qarama-qarshiliklarni, u yoki bu xil tarixiy voqealarning bayonini, ularning xalq taqdiridagi ta'siri va izlarini ko'rishimiz mumkin. Turkiy xalqlarning ko'pgina ana shunday asarlarida dunyoqarash bilan bog'liq turli xil masalalar — yaxshilik bilan yomonlik o'rtasidagi kurash, inson hayotining mazmuni, uning o'limi va umrboqiyiligi, tabiatda sodir bo'ladigan o'zgarishlar mohiyati kabi muammolar o'rta qo'yiladi va ular ko'pincha kundalik hayot tajribalaridan kelib chiqqan holda hal qilinadi.

Respublika ijodiy salohiyatini shakllantirish ishidagi yaruvchanlik yo'nalishini bolalar ijodiyoti misolida ham kuzatish mumkin. Respublika miqyosida "Biz O'zbekiston bolalarimiz", "Cheksiz go'zallik", "Boysun bahori" festivallari, "Ustalar shahri" ko'rgazmalari, "Asfaltdagi rasmlar", "Molbert (dastgoh)da tasviriy san'at", "Ko'hna afsonalar tabassumi" va boshqa nomlar ostida ko'rik-tanlovar o'tkazildi. Hoji Abdulaziz Abdurasulov, Jo'raxon Sultonov, Ma'murjon Uzoqov, Komiljon Otaniyozov, Otajon Xudoyshukurov kabi atoqli hofizlar xotirasiga bag'ishlangan tanlovlar esa yangi-yangi yosh sozanda va xonandalarni aniqladi va ularning iste'dodini yanada rivojlantirishni kuchaytirdi.

Mustaqil O'zbekiston davlatining shakllanish jarayoni, uning jamiyatni demokratlashtirish va dunyo hamjamiyatiga faol integratsiyalashuvi yo'lidagi harakati ma'naviy madaniyatni rivojlantirish va mustahkamlash masalasi bilan chambarchas bog'liq bo'lib, bu bugungi kunda ham, milliy-madaniy siyosat darajasiga ko'tarilgan eng muhim vazifa bo'lib qolmoqda. Ajdodlarimiz tomonidan ko'p asrlar mobaynida yaratilgan ulkan, bebaho ma'naviy va madaniy merosni tiklash — doimiy ma'naviy va katta axloqiy-estetik ahamiyatga egadir.

Adabiyotlar

1. R.Ishmuxammedov "Innovatsion texnologiyalar yordamida ta'lim samaradorligini oshirish yo'llari". — T.: 2004.
2. S.S.Bulatov "Xalq amaliy san'ati namunalari". — T.: 2010.
3. Barkamol avlod O'zbekiston taraqqiyotining poydevori. — T.: Sharq, 1997.
4. Abdirasilov S., "Tasviriy san'at va uni o'qitish metodikasi". O'quv qo'llanma -T.: Toshkent "Ilm-ziyo", 2011-yil.
5. Ishmuhamedov J. "Innovatsion texnologiyalar yordamida ta'lim samaradorligini oshirish yo'llari". — T.: TDPU. 2004.
6. R.Hasanov. "Maktabda tasviriy san'atni o'qitish metodikasi". — T.: "Fan va texnologiya". 2004.
7. Internet ma'lumotlari.



O'QUVCHILARNI KASB-HUNARGA YO'NALTIRISH VA PSIXOLOGIK-PEDAGOGIK RESPUBLIKA TASHXIS MARKAZI

BICHUVCHI

Bichuvchi - mavjud qoida, ko'rsatmalarga rioya qilgan holda ma'lum bir chizma asosida andozalar bilan ishlaydi

ISH FAOLIYATINING MAZMUNI VA ISH SHARTI

Xizmat ko'rsatish sohasidagi usta bo'lib, buyurtmalarni libos tuzilishiga asoslanib bichadi.

- mijozdan o'Ichovlarni oladi;
- konstruksiyasini tayyorlab, modellashtadi.
- mato bo'yicha namunaning maketini tadbliq etadi.




MUTAXASSISLIKGA QO'YLADIGAN TALABLAR

Bichish mashinalari uchun umumiy qurilma va qoidalar, bichish ishlarining texnikasi va tashkil etilish qoidalari, usullari, matolarni kesish yo'llari, kompozit qurilishdagi matoning plastik xususiyatlar.

KASBIY O'SISH ISTIQBOLLARI

- 1) bosqich – stajyor;
- 2) bosqich – master.
- 3) bosqich – sex boshlig'i;
- 4) bosqich tadbirkor.



KASB TIPI "ODAM – BADIY OBRAZ"

MUTAXASSISNING INDIVIDUAL XUSUSIYATLARI

Qo'l mehnatiga moyilligi, xizmat ko'rsatishga moyilligi, ijodiy faoliyatga moyilligi, aniqlik, qat'iyatlik, sabr-toqat.

KASB EGALLASH YO'LLARI VA QO'LLANISH SOHASI

Kasb-hunar sohasidagi asosiy bilimlarni umumiy o'rta ta'lim va o'rta maxsus ta'lim muassasalarida hamda kiyimlarni tikish va ta'mirlash ustaxonalarida olishi mumkin;

- fabrikalar;
- xususiy korxonalar;
- ta'lim kombinatlari;
- shuningdek, bichuvchilar o'zlariga tegishli bo'lgan vazifalar va shaxsiy buyurtmalarni bajarishlari mumkin.


TURDOSH KASBLAR

Dizayner - modeler (tikuv, charm buyumlari, poyafzal) modeler - konstruktor, tikuvchilik ishlab chiqarish texnologii.



TIBBIY MONELIK

- o'tkir oshqozon-ichak kasalliklari;
- allergik kasalliklar;
- tayanch harakat tizimi kasalliklari;
- yurak-qon tomir kasalliklari;
- umurtqa pog'onasi kasalliklari;
- eshitish va ko'rish organlari kasalliklari;
- yuqumli teri kasalliklari;
- yuqori nafas yo'llari kasalliklari.



facebook.com/tashxismark
az1t.me/hiyotgaqoshil
www.tashxis.uz
t.me/tashxismarkuzi

COVID-19 BILAN KASALLANISH XAVFINI KAMAYTIRISH



Yo'tal yoki akxa urish paytida og'iz va burningizni bukilgan tirsagingiz bilan berkiting



Qo'llaringizni sovun bilan iloji boricha tez-tez yuving



Yo'talayotgan, isitma yoki nafas qisilishi bor odam bilan kamida 2 metr masofa saqlang



Ko'zlaringiz, burningiz va og'zingizga tegmang

AGAR SIZDA YO'TAL, ISITMA YOKI NAFAS QISILISHI KUZATILSA ZUDLIK BILAN SHIFOKORGA MUROJAAT QILING!